

## AGGRESSIVE BOLALARGA XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING USULLARI.

**Sa'dullayeva Madinabonu Hayrullajon Qizi**

*O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti o'quvchisi Xorijiy tillar va adabiyoti fakulteti Xorijiy til va adabiyoti : Ingliz tili Tel raqami : +998936668006*

**Anotatsiya :** *Ushbu maqolada aggressive bolalar ,ularning psixalogiyasidagi o'ziga xosliklar , ularga xorijiy tillarni o'qitishning usullari va foydalari haqida so'z boradi.*

**Kalit So'zlar:** Aggressiya, diqqatni jamlash, jamoada ishash ,individual yondashuv,guruuhda ishlash,ota-on a bilan hamkorlik,agressiv bolalarga xorijiy til o'qitish foydalari va usullari.

### KIRISH

Aggressive bolalar –bu o'zlarining hissiyotlarini ,xususan g'azabini,zararli yoki zarar yetkazuvchi tarzda ifodalaydigan bolalardir.AGGRESSIYA - Lotincha so'z bo'lib ,”Tajovuz qilish” ma'nosini beradi.Aggressiveya turli shaklarda namoyon bo'lishi mumkin .JISMONIY ZARAR(urish,tepish), so'z bilan zarar yetkazish (haqoratlash,tahqirlash).Agressiv xulq-atvor ko'pincha ularning atrofidagilariga, ota-onasi, tengdoshlari va o'qituvchilariga zarar yetkazadi.Bu turdagи bolalarga xorijiy tillarning o'qitishni qator foydalari mavjud .Bu jarayon nafaqat til o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga , balki salbiy xulq-atvorlarda foriq bo'lishga ham yordam berishi mumkin.

ASOSIY QISIM. AGGRESSIVE bolalarga xorijiy tillarni o'rgatishning bir qancha ijobiy tarflari bor.Bunga esa quyidagilarni misol qila olamiz:

1.DIQQATNI JAMLASH QOBILIYATNI OSHIRISHI. Til o'rganish bolalardan diqqat nuqtasini umumiy bir markazga qaratishni talab qiladi .Bu esa bolalarni kop asabiy lashishini oldini olishi bilan bir qatorda , e'tiborininijobiy va konstruktive faoliyatga yo'naltirishga yordam beradi.

2.STRESSNI KAMAYTIRISH VA EMOTSIONAL BOSHQARUVNI YAXSHILASH .Til o'rganish jarayonida olib boriladigan o'yinlar, rang-barang mashg'ulotlar bolalardagi salbiy dunyoqarashni kamaytiradi va dunyoni iliq ranglarda ko'rishga undaydi.Buning natijasida esa bola boshdan kechiradigan stresslar soni keskin kamayadi.

3.O'Z-O'ZIZNI HURMAT QILISHNI OSHIRISH. Yangi tilni o'rganish jarayonida erishladiga yutuqlar va shu yutuqlar yuzasida yuzaga keladigan maqtovlar bolalarda o'ziga bo'lgan hurmat va qadrlash hissini keskin oshiradi .

4.O'ZINI IFODA QILISH QOBILIYATINI YAXSHILAYDI. Xorijiy tillarni o'rganish jarayonida bolalar yangi zo'z va iborlarni yod oladi.Bu esa o'z navbatida

bolani ichki kechinmalarini to'liqroq va tushunarliroq ifoda etishiga ko'maklashadi.Natijada aggressive xulq-atvorning kamayishiga olib keladi.

AGGRESSIVE bolalarga Xorijiy tillarni o'qitishda maxsus , strategik va mutaxasiss psixologlar tomonidan tavfsiya qilingan usullardan foydalanish kerak.Quyidagi usullar samarali foyda olib kelishi mumkin:

1. O'YIN ASOSIDAGI O'QITISH TIZIMI: Til o'rganish jarayonida turli yangi mavzularni o'qitishda yoki repetition jarayoni (o'tilgan ma'lum mavzuni takrorlash jarayoni)da o'yinlardan foydalanish .Bu bolalar diqqatini tortadi va aggressuya jarayonini kamaytiradi.

2. JISMONIY HARAKATLAR BILAN INTEGRATSIYA QILISH: Dars davomida bolalarga jismoniy harakatlarni qildirish, yani qo'shiq kuylatish(karaoke qildirish), harakatkli mashqlarni mavzu doirasidagi yangi so'zlarni yodlashda ishlatish (tana a'zolari mavzusi o'tilayotganda tana a'zolarini ko'rsatish kabi vaziyatlarda).Bu bolalarning energiyasini ijobiy maqsadlarga yo'naltirishga yordam beradi

3. GURUHDA ISHLASH : Guruhda faoliyat yurutish , o'zaro hamkorlik qilish va kommunikative(mulaqot) ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi .Buning ta'sirida esa bola atrof- muhit ilan erkin mulaqot qilish mahratini mahoratini oshiradi va agessiyaning keskin kamayishiga olib keladi.

4. INDIVIDUAL YONDASHUV.Har bir bolaning o'rganish uslubi turlicha bo'lishi mumkin.SHu sababdan ham o'qituvchilar bolalarning qiziqishlari , tillarni o'rganish jarayonidagi kuchli va kuchsiz taraflarini alohida o'rganishi zarur .

5. OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIK QILISH.Ota-onalar va o'qituvchilar orasidagi samimiy va samarali mulaqot aggressive bolalarning xorijiy tillarni o'rganish jarayonidagi muvaffaqiyatini oshiradi.Darslar davomida o'qituvchining ,uyda esa ota-onalarning nazoratida bo'lish bolalarga faqatgina ijobiy ta'sir qilishi mumkin.

XULOSA .Umuman olganda ,aggressive bolalarga xorijiy tillarni o'qitish ularning ijtimoiy va emotsiyal rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.Bu jarayon ularning o'zini ifoda qilish qobiliyatini yaxshilash ,ijtimoiy muhitda o'zaro munosabatarni yaxshilash va umumiyl xulq-atvor muammolarini kamaytirishga yordam beradi.BU jarayon aggressive bolalarning harakteristikasini ijobiy yo'nalishga o'zgartirishda va kelajakdag'i imkoniyatlarini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi.

### FOYDALANILGA ADABIYOTLAR :

- 1.Chet tili o'qitish metodikasi Jamol Jalolov Toshkent 2012
- 2.Techiques and principles in Language Teaching ,Second edition (Diana Larsen, Oxford University press)
- 3.Approaches and Methods in Language Teaching ,Second Edition (Jack C.Richard ,Theodore S.Rodger ;Cambridge Univesrsity Press).

- 2.<https://e-library.namdu.uz>
- 3.<http://library.navoiy-uni.uz>
- 4.<https://ojs.kokanduni.uz>